

ONKOLOGIK TERMINLARNING LOTINCHA TASNIFI

Navoiy davlat universiteti Tibbiyot fakulteti
davolash ishi yoʻnalishi I kurs talabasi

Qodirova Nazira

Ilmiy rahbar: **Turdiyev Shuhrat Berdiyevich**

Annotatsiya

Ushbu maqolada onkologik terminlarning lotin tilidagi tuzilishi, tasnifi hamda klinik va ilmiy atamalar shakllanishining lingvistik xususiyatlari yoritilgan. Tibbiyotda qoʻllaniladigan oʻsimta nomlarining etimologiyasi, benign va malign neoplaziyalar nomlanishida qoʻllanadigan affiksalar –oma, –sarcoma, –carcinoma, –blastoma kabi qoʻshimchalarning maʼnosi izohlangan. Shuningdek, lotincha atamalarning xalqaro standart tizimdagi oʻrni va amaliy ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: onkologik terminlar, lotin tili, oʻsimta tasnifi

АННОТАЦИЯ

В настоящей статье рассматривается латинская классификация онкологических терминов, анализируются основные аффиксы, используемые при обозначении опухолей, и их лингвистические особенности. Освещена роль латинской номенклатуры в обозначении доброкачественных, злокачественных и эмбриональных новообразований, а также изучена морфологическая структура терминов. Показано значение латинской терминологии в международной медицинской практике и стандартизации понятий.

Ключевые слова: онкологическая терминология, латинская классификация, номенклатура опухолей

ABSTRACT

This article explores the Latin classification of oncological terms, analyzing the main affixes used in tumor nomenclature and their linguistic features. The role of Latin terminology in naming benign, malignant, and embryonic neoplasms is discussed, along with the morphological structure of medical terms. The paper also highlights the practical importance of Latin terminology in international medicine and its contribution to unified scientific communication.

Keywords: oncological terminology, Latin classification, tumor nomenclature.

Kirish

Onkologiya – oʻsimtalar etiologiyasi, patogenezi, diagnostikasi va davolash usullarini oʻrganuvchi tibbiyot boʻlimidir. Jahon tibbiy terminologiyasining asosiy qatlamini lotin va yunon tillari tashkil etishi sababli onkologik terminlarning toʻgʻri foydalanilishi shifokorlar, tadqiqotchilar hamda talabalar uchun muhim ahamiyatga

ega. Zamonaviy klinik adabiyotda neoplaziya nomlarini sistematik tasniflash tibbiy aloqa va ilmiy izlanishlarda aniqlikni ta'minlaydi. Shu bois, lotincha terminlarning morfologik tarkibi va tasnifini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Onkologik terminlarning kelib chiqishi

Ko'pchilik o'simta nomlari yunoncha-lotincha ildizlardan tashkil topadi.

Masalan:

onco- (yun. onkos – “shish”)

neo- (yun. neos – “yangi”)

plasia (yun. plasis – “o'sish, shakllanish”)

Bu ildizlar turli qo'shimchalar bilan birikib neoplaziya turini bildiradi.

Lotincha o'simtalar tasnifi

Yaxshi (benign) o'simtalar

Benign o'simtalar ko'pincha to'qima nomiga –oma qo'shimchasi bilan nomlanadi.

To'qima	Lotincha nomi	Benign o'simta
Mushak	musculus	myoma
Yog' to'qimasi	adeps	lipoma
Fibroz to'qima	fibra	fibroma
Tomir	vas	angioma
Nerv to'qimasi	neuron	neuroma

Xususiyati: sekin rivojlanadi, invaziv emas, metastaz bermaydi.

Yovuz (malign) o'simtalar

Malign neoplaziyalar ikki asosiy turga bo'linadi:

Epitelial o'simtalar – carcinoma

adenocarcinoma – bezli epiteliya rak o'simtasi

squamous cell carcinoma – yassi hujayrali rak

Biriktiruvchi to'qima kelib chiqishli o'simtalar – sarcoma

osteosarcoma – suyak sarkomasi

chondrosarcoma – tog'ay sarkomasi

liposarcoma – yog' to'qima malign o'sm.

Farqi: tez o'sadi, metastaz beradi, invaziv xarakterga ega.

Bolalik davri o'simtalari – blastoma

–blastoma qo‘shimchasi embrional kelib chiqishni bildiradi.

Misollar: nephroblastoma, retinoblastoma, neuroblastoma.

Terminlar tuzilishida qo‘llaniluvchi affiksalar

Affiks	Ma‘nosi	Misol
–oma	benign o‘simta	leiomyoma
– carcinoma	epitelial malign o‘simta	hepatocellular carcinoma
– sarcoma	biriktiruvchi to‘qima maligni	fibrosarcoma
– blastoma	embrional o‘simta medulloblastoma	medulloblastoma
– metastasis	ikkilamchi tarqalish	metastasis pulmonum

Amaliy ahamiyati

Lotincha tasnif:

shifokorlar o‘rtasida terminologik birlikni ta’minlaydi;

klinik tashxis qo‘yishda noto‘g‘ri talqinlarni kamaytiradi;

xalqaro ilmiy maqolalarda yagona standart sifatida qo‘llaniladi;

ICD va WHO tasnifida asosiy terminologiya sifatida mavjud.

Xulosa

Onkologik terminlarning lotincha tasnifi tibbiy terminologiyaning ajralmas qismi bo‘lib, benign, malign va embrional o‘simtalar nomlanishida muhim rol o‘ynaydi. Affikslarning ma‘nosini bilish shifokor va talabalar uchun terminlarni to‘g‘ri tushunish hamda klinik amaliyotda xatolarning oldini olishga xizmat qiladi. Lotincha atamalarni tizimli o‘rganish ilm-fan va amaliy onkologiya rivoji uchun zaruriy omil sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. WHO Classification of Tumours. 5th Edition. International Agency for Research on Cancer (IARC), Lyon.
2. Dorland’s Illustrated Medical Dictionary. 33rd ed. Saunders Elsevier.
3. Oxford Concise Medical Dictionary. Oxford University Press.
4. J. B. Baggish. Medical Terminology: A Short Course. – Elsevier.
5. Smith R. Introduction to Oncology. Cambridge University Press, 2020.